

**OLIY TA'LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH
VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.Ped.33.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

XAMDAMOV ERKIN ERGASHEVICH

**BO'LAJAK PEDAGOGIK KADRLARNING GNOSTIK
KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYASI**

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по педагогическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
in pedagogical sciences**

Xamdamov Erkin Ergashevich

Bo'lajak pedagogik kadrlarning gnostik kompetentligini shakllantirish
texnologiyasi..... 3

Хамдамов Эркин Эргашевич

Технология формирования гностической компетентности будущих
педагогических кадров..... 25

Xamdamov Erkin Ergashevich

The technology of forming gnostic competence of future pedagogical
personnel..... 49

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 54

**OLIY TA'LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH
VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.Ped.33.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

XAMDAMOV ERKIN ERGASHEVICH

**BO'LAJAK PEDAGOGIK KADRLARNING GNOSTIK
KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYASI**

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2020.1.PhD/Ped1304 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Guliston davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) tilda Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.bimm.uz) va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Yuzlikayev Farit Rafailovich

pedagogika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Zaripov Lochin Rustamovich

pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Jumanazarov Umid Umurzoqovich

pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Yetakchi tashkilot:

Buxoro davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2025.27.12.Ped.33.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil "25" 06 soat 14.00 da majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Ziyo ko'chasi, 3-uy. Tel.: (+99871) 202-01-20, faks: (+998) 71-202-01-20, e-mail: info@bimm.uz).

Dissertatsiya bilan Oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (35 - raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100185, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Ziyo ko'chasi, 3-uy. Tel.: (+99871) 202-01-20, faks (+99871) 202-01-20; e-mail: info@bimm.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "08" 06 kuni tarqatildi.
(2026-yil "08" 06 daqi 8 - raqamli reyestr bayonnomasi).



U.Sh.Begimkulov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, p.f.d., professor

A.S.Djurayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, p.f.d. (DSc), dotsent

Ya.O'.Ismadiyarov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, p.f.d. (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda yagona global axborot makoni shakllanayotgan bir sharoitda bo‘lajak pedagogik kadrlarning o‘z sohasi, pedagogika va o‘quvchilar haqidagi bilimlarni egallashi, axborotni baholashi hamda undan amaliy faoliyatda samarali foydalana olishi tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ishonchsiz axborotlarni ommaviy tarqatish mexanizmlari kuchayib borayotgan hozirgi davrda bo‘lajak pedagogik kadrlardan yuksak tanqidiy fikrlash, metakognitiv ko‘nikmalarga ega bo‘lish, ma‘lumotlarning ishonchliligini baholay olish hamda kasbiy ahamiyatga ega axborotlarni o‘quvchilar xususiyatlari va ta‘lim kontekstiga mos ravishda sintez qila bilish talab etilmoqda. Shu bois dunyoning yetakchi pedagog kadrlar tayyorlashga ixtisoslashgan ta‘lim muassasalarida yuqori malakali pedagog kadrlarni tayyorlashga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Dunyoning taniqli ilmiy-tadqiqot markazlari, xususan, AQSHdagi Kaliforniya universiteti qoshidagi National Center for Research on Teacher Learning and Teacher Education, Michigan State University huzuridagi Institute for Research on Teaching and Learning, Avstraliyadagi Queensland University of Technology tarkibidagi School of Teacher Education and Leadership, shuningdek, Rossiya Federatsiyasining Kursk davlat universiteti huzuridagi Uzluksiz ta‘lim markazi tomonidan bo‘lajak pedagogik kadrlarning gnostik kompetentligini shakllantirish va takomillashtirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar tizimli ravishda amalga oshirilmoqda.

Mamlakatimiz ta‘lim sohasida olib borilayotgan izchil islohotlarning tub mohiyati zamonaviy mehnat bozoriga moslasha oladigan, uning o‘zgaruvchan talablariga javob beradigan kadrlarni sifatli tayyorlash hamda shu orqali mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga munosib hissa qo‘shishni ta‘minlashdan iborat. Zero, mamlakatimiz Prezidenti ta‘kidlaganidek, “... ta‘limni rivojlantirmasdan turib yuksak taraqqiyotga erisha olmaymiz. Har qanday muammoning yechimi ham, ertangi kunimizni hal qiluvchi omil ham, shubhasiz, ta‘limdir”¹. Shu bois keyingi yillarda mamlakatimizda bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash tizimini isloh qilishga qaratilgan qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, 2012-yil 10-dekabrda PQ-1875-son “Chet tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni ommalashtirish faoliyatini sifat

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o‘ttiz ikki yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi 31.08.2023// <https://president.uz/uz/lists/view/6637>

jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 343-son "Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalarni tasdiqlash to'g'risida"gi, 2017-yil 610-son "Ta'lim muassasalarida chet tillarni o'qitish sifatini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2021-yil 312-son "Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirishni samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga taalluqli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalar rivojlanishining "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va uni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Respublikamiz olimlaridan U.Inoyatov, B.Adizov, E.Seytxalilov, R.Jo'rayev va Sh.Sharipov talabalar gnostik faoliyatining ilmiy jihatlari, ilmiy-tadqiqot faoliyatining tuzilishi, mazmuni va modellarini tadqiq etganlar. U.Begimqulov, A.Abduqodirov, N.Azizxo'jayeva, Y.Yo'ldoshev hamda U.Tolipov o'z izlanishlarida asosiy e'tiborni innovatsion ta'lim va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali talabalarning gnostik faolligi darajasini oshirishga qaratganlar. Bo'lajak chet tili o'qituvchilarining gnostik faoliyati tamoyillari, usullari va shakllari J.Jalolov, T.Sattarov, F.Yuzlikayev, G.Mahkamova, K.Riskulova, U.Jumanazarov kabi olimlar tomonidan o'rganilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi olimlaridan E.Timoxina, T.Sorokina, Ye.Passov, E.Kuzmina, G.Kitaygorodskaya, V.Bespalko, V.Slasyonin, Yu.Babanskiy, I.Zimnyaya, I.Popov, Ye.Galishnikova talabalarning bilish faoliyati hamda ularning mustaqil va individual ta'limi masalalarini tadqiq etganlar.

Xorijiy pedagog olimlardan P.Grossman, I.Winter, S.Magnusson gnostik kompetentlikning nazariy asoslari, o'qituvchining kasbiy rivojlanishi va tayyorgarligida gnostik kompetentlik masalalarini tadqiq qilganlar. Chet til o'qitishda kompetensiyalarni rivojlantirishning lingvodidaktik imkoniyatlari, zamonaviy metodik prinsiplari, mashqlar tizimi va texnologiyalari esa Jeremy Harmer, Jack C.Richards, Theodore S.Rodgers, John Raven, W.Hutmacher kabi olimlar tomonidan o'rganilgan.

Yuqorida qayd etilgan tadqiqotlarda pedagogik kompetentlik, kasbiy tayyorgarlik, kommunikativ va lingvodidaktik kompetensiyalar, ta'lim texnologiyalari hamda o'qituvchining bilish faoliyati bilan bog'liq masalalar keng o'rganilgan. Biroq bo'lajak pedagogik kadrlarning gnostik kompetentligini shakllantirish muammosi, xususan, kognitiv va kasbiy-refleksiv ko'rsatkichlarning izchil rivojlanishini ta'minlovchi determinatsion blok, o'quv materiallarining mantiqiy-semantik strukturasi nominativ va signativ elementlarga muvofiqlashtirish, shuningdek, tahliliy-tafakkuriy va interpretatsion ko'nikmalarni

rivojlantirishga xizmat qiluvchi texnologik matritsa asosida yetarli darajada tadqiq etilmagan. Shu nuqtai nazardan, bo'lajak pedagogik kadrlarning gnostik kompetentligini shakllantirish texnologiyasini takomillashtirish hamda uni kognitiv, kasbiy-refleksiv, subyektiv-perseptiv va prognostik ko'rsatkichlar asosida ilmiy-pedagogik jihatdan asoslash zarurati mavjud.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Tadqiqot Guliston davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq № 71-07 "Oliy ta'lim muassasalarida ma'naviy-kasbiy barkamol shaxsni shakllantirishning pedagogik texnologiyalari" mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi bo'lajak pedagogik kadrlarning gnostik kompetentligini shakllantirish texnologiyasini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

bo'lajak pedagogik kadrlarning gnostik kompetentligini shakllantirishning didaktik imkoniyatlarini aniqlashtirish;

bo'lajak pedagogik kadrlarning gnostik kompetentligini shakllantirish modelini determinatsion blok asosida takomillashtirish;

o'quv materiallarini loyihalashning pedagogik algoritmi va texnologik matritsasini ishlab chiqish;

gnostik kompetentlikni bosqichma-bosqich shakllantirish texnologiyasining samaradorligini tajriba-sinov ishlari asosida aniqlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida respublikamiz oliy ta'lim muassasalarining "Xorijiy til va adabiyoti" bakalavriat ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarning gnostik kompetentligini rivojlantirish jarayoni belgilangan. Tajriba-sinov ishlariga Guliston davlat universiteti, Jizzax davlat pedagogika universiteti va Termiz davlat universitetidan jami 472 nafar talaba jalb qilindi.

Tadqiqot predmetini xorijiy tillar yo'nalishida bo'lajak pedagogik kadrlarning gnostik kompetentligini shakllantirish mazmuni, modeli, determinatsion bloki, pedagogik algoritmlari va texnologik matritsasini ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etish jarayoni tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida anketa so'rovi, pedagogik kuzatuv, taqqoslash, umumlashtirish, tizimlashtirish, modellashtirish, ekspert baholash va matematik-statistik tahlil kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

bo'lajak pedagogik kadrlarning gnostik kompetentligini shakllantirishning didaktik imkoniyatlari o'qitish jarayonida kognitiv-funksional ko'rsatkichlarni rivojlantiruvchi tutash nuqtalarni "hozir va shu yerda" diqqat fokusi asosida geshtaltlik bilan bog'liq longityud kuzatuv orqali aniqlashtirilgan;

bo'lajak pedagogik kadrlarning gnostik kompetentligini shakllantirish modeli kognitiv hamda kasbiy-refleksiv ko'rsatkichlarning izchil rivojlanishini ta'minlovchi determinatsion blok hamda o'quv materiallarini loyihalashning mantiqiy-semantik strukturasi nominatorlik va signatorli elementlarga muvofiqlashtirishga qaratilgan pedagogik algoritmi qo'llash asosida takomillashtirilgan;

bo'lajak pedagogik kadrlarning gnostik kompetentligini shakllantirish jarayoni tahliliy-tafakkuriy va interpretatsion ko'nikmalar samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi o'quv matnlarini tanlashning monologik, diskursiv va struktur modellari asosida kontekstual ichki aloqalarni o'rnatish hamda tashqi ifodaviylikni belgilashning texnologik matritsasini ishlab chiqish orqali takomillashtirilgan;

gnostik kompetentlikni bosqichma-bosqich shakllantirish texnologiyasining samaradorligi kasbiy kompetentlikning subyektiv-perseptiv komponentlari rivojlanish dinamikasini kasbiy-kognitiv faoliyatni prognozlash imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiluvchi ta'lim jarayonlari zanjiri bilan uzviy bog'liqligini ta'minlash orqali aniqlashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

bo'lajak pedagogik kadrlarning gnostik kompetentligini shakllantirishga qaratilgan model, diagnostika mezonlari va ko'rsatkichlar majmui ishlab chiqilgan;

bo'lajak pedagogik kadrlarning gnostik kompetentligini shakllantirishda samarali bo'lgan innovatsion ta'lim texnologiyalari taklif etilgan;

bo'lajak pedagogik kadrlarning gnostik kompetentligini shakllantirishga xizmat qiluvchi o'quv-amaliy mashg'ulotlar, diagnostik testlar, refleksiv va variativ topshiriqlar, bosqichma-bosqich monitoring asosida bilim, ko'nikma va malakalarni baholashning samarali metodlarini qo'llash bo'yicha uslubiy tavsiyalar ishlab chiqilgan;

tadqiqot natijalari asosida oliy ta'lim jarayonida, xususan, "Tillar o'qitish metodikasi va ta'lim texnologiyalari", "Lingvodidaktika", "Madaniyatlararo muloqot" fanlarini o'qitishga oid amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoning aniq qo'yilganligi, uni o'rganish chegaralarining belgilanganligi, nazariy ma'lumotlarning mahalliy va xorijiy pedagog olimlarning ilmiy-nazariy qarashlariga asoslanganligi, qiyosiy-tanqidiy tahlil, sotsiometrik metodlar, anketa so'rovi, intervyu, suhbat, pedagogik tajriba-sinov, matematik-statistik tahlil usullaridan foydalanilganligi, nazariy qoidalarning amaliyotga joriy etilganligi hamda olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati bo'lajak pedagogik kadrlarning kasbiy-gnostik kompetentligining pedagogik funksiyalarni amalga oshirishdagi muhim o'rni bilan tavsiflanadi. Shuningdek, tadqiqot natijalari "Xorijiy til va adabiyoti" (ingliz tili), "Filologiya va tillarni o'qitish" (ingliz tili) ta'lim yo'nalishlaridagi "Tillar o'qitish metodikasi va ta'lim texnologiyalari", "Lingvodidaktika", "Madaniyatlararo muloqot" fanlari mazmunini zamonaviy talablar asosida takomillashtirish imkonini yaratishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati innovatsion rivojlanish sharoitida oliy ta'limda bo'lajak pedagogik kadrlarning kasbiy-gnostik kompetentligini shakllantirishga qaratilgan modelning takomillashtirilganligi, oliy ta'lim o'quv-tarbiya jarayonlarida bo'lajak pedagogik kadrlarning kasbiy-gnostik kompetentligini shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik jihatlari aniqlashtirilganligi,

oliy ta'limda gnostik kompetentlikni rivojlantirishning tashkiliy-pedagogik tizimi ishlab chiqilganligi hamda ta'lim sifatini oshirishda ushbu tizimdan foydalanish strategiyasi takomillashtirilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Bo'lajak pedagogik kadrlarning gnostik kompetentligini shakllantirish bo'yicha tadqiqot natijalari asosida:

bo'lajak pedagogik kadrlarning gnostik kompetentligini shakllantirishning didaktik imkoniyatlarini o'qitish jarayonida kognitiv-funksional ko'rsatkichlarni rivojlantiruvchi tutash nuqtalar, "hozir va shu yerda" diqqat fokusi hamda geshtaltlik bilan bog'liq longityud kuzatuv asosida aniqlashtirish bo'yicha tavsiyalar Guliston davlat universitetining 2023-yil 31-yanvardagi 10-sonli buyrug'iga asosan berilgan 10-13-raqamli nashr ruxsatnomasi asosida chop etilgan "Lexical Expressive Means and Stylistic Devices" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan. (Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazining 2026-yil 11-fevraldagi 02/01-01-83-sonli ma'lumotnomasi). Natijada bo'lajak pedagogik kadrlarning gnostik kompetentligini shakllantirishning didaktik imkoniyatlari kengaytirilgan;

bo'lajak pedagogik kadrlarning gnostik kompetentligini shakllantirish modelini kognitiv hamda kasbiy-refleksiv ko'rsatkichlarning izchil rivojlanishini ta'minlovchi determinatsion blok va o'quv materiallarini loyihalashning mantiqiy-semantik strukturasini nominatorlik va signatorli elementlarga muvofiqlashtirishga qaratilgan pedagogik algoritmi qo'llash asosida takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar Guliston davlat universitetining 2023-yil 29-maydagi 71-sonli buyrug'iga asosan berilgan 71-26-raqamli nashr ruxsatnomasi asosida chop etilgan "Bo'lajak chet tili o'qituvchilarining gnostik kompetentligini shakllantirish texnologiyasi" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan. (Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazining 2026-yil 11-fevraldagi 02/01-01-83-sonli ma'lumotnomasi). Natijada bo'lajak pedagogik kadrlarning gnostik kompetentligini rivojlantirish jarayonida o'quv materiallarini nominativ va signativ elementlar asosida loyihalashga xizmat qiluvchi pedagogik algoritmlarni qo'llash imkoniyatlari kengaytirilgan;

bo'lajak pedagogik kadrlarning gnostik kompetentligini shakllantirish jarayonini tahliliy-tafakkuriy va interpretatsion ko'nikmalar samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi o'quv matnlarini tanlashning monologik, diskursiv va struktur modellari asosida kontekstual ichki aloqalarni o'rnatish hamda tashqi ifodaviylikni belgilashga qaratilgan texnologik matritsani ishlab chiqish orqali takomillashtirish bo'yicha tavsiyalardan Guliston davlat universitetida bajarilgan 2020-207-reyestr raqamli Arkansas Spring International Center "Capacity Building Project" amaliy loyihasida foydalanilgan. (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2023-yil 24-fevraldagi 02-07-680/04-son dalolatnomasi). Natijada bo'lajak pedagogik kadrlarda gnostik kompetentlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan, tahliliy va dalillarga tayanuvchi texnologik matritsani ishlab chiqish hamda uni ta'lim jarayoniga integratsiyalash mexanizmlari takomillashtirilgan;

gnostik kompetentlikni bosqichma-bosqich shakllantirish texnologiyasining samaradorligini kasbiy kompetentlikning subyektiv-perseptiv komponentlari

rivojlanish dinamikasini kasbiy-kognitiv faoliyatni prognozlash imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiluvchi ta'lim jarayonlari zanjiri bilan uzviy bog'liqligini ta'minlash orqali aniqlashtirish bo'yicha tavsiyalar Guliston davlat universitetining 2023-yil 29-maydagi 71-sonli buyrug'iga asosan berilgan 71-26-raqamli nashr ruxsatnomasi asosida chop etilgan "Bo'lajak chet tili o'qituvchilarining gnostik kompetentligini shakllantirish texnologiyasi" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan. (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2023-yil 24-fevraldagi 02-07-680/04-son dalolatnomasi). Natijada bo'lajak pedagoglarning kasbiy-gnostik kompetentligini izchil rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarining samaradorligini aniqlash va kasbiy-kognitiv faoliyatni oldindan loyihalash imkoniyatlari kengaytirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 4 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyada muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 15 ta ilmiy ish chop etilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari bo'yicha asosiy ilmiy natijalarni chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta ilmiy maqola nashr qilingan. Ulardan 4 tasi respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, 8 paragraf, boblar bo'yicha xulosalar, umumiy xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning "Kirish" qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi bayon qilingan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti ochib berilgan, shuningdek, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan. Shuningdek, tadqiqotning ilmiy yangiligi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilganligi, nashr qilingan ishlar hamda dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Bo'lajak pedagogik kadrlarning gnostik kompetentligini shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslari**" deb nomlangan birinchi bobi bo'lajak pedagogik kadrlarning gnostik kompetentligining mohiyati, uning didaktik ahamiyati, gnostik-lingvistik tayyorgarlikning maqsad va vazifalarini yoritishga, shuningdek, "kompetensiya", "kompetentlik", "gnostik kompetentlik" tushunchalariga doir mahalliy va xorijiy olimlarning qarashlarini tahlil qilishga bag'ishlangan.

Ta'limda zarur bo'lgan asosiy kompetensiyalar ro'yxati Yevropa parlamenti hamda Kengashi tomonidan 2006-yil 18-dekabrda tavsiya etilgan. Ushbu kompetensiyalar "Yevropa uchun tayanch kompetensiyalar" deb nomlangan xalqaro anjumanda rasmiylashtirilgan bo'lib, hozirda Yevropa ta'lim siyosatida muhim o'rin egallaydi. Mazkur kompetensiyalarning mazmuni shundan iboratki, shaxs o'z

amaliy tajribasi asosida foydali bilimlarni ajratib olishi, mavjud bilimlar o'rtasidagi mantiqiy bog'liqlikni aniqlab, ularni tizimlashtira olishi, o'ziga xos o'rganish strategiyalarini belgilashi hamda turli muammoli vaziyatlarda mustaqil yechim topa olishi lozim.

Shuningdek, shaxs o'z bilimini mustaqil ravishda kengaytirish, kerakli ma'lumotlarni izlab topish, muayyan axborot bazalaridan foydalanish, tajribali mutaxassislardan maslahat olish, tegishli hujjatlar bilan ishlash va ularni saralash kabi faoliyatlarni bajarishga ham qodir bo'lishi kerak.

N.A.Muslimov va hammualliflar kompetensiya atamasiga quyidagicha ta'rif berganlar: "... faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish".

M.T.Axmedova kompetensiya tushunchasini quyidagicha talqin qiladi: "Kompetensiya deyilganda, shaxsning biror-bir sohadan xabardorligi, shu sohani bilish darajasi tushuniladi".

N.Sh. Turdiyev, Yu.M.Asadov, S.N.Akbarova va D.Sh.Temirov o'z ishlarida "kompetentlik" hamda "kompetensiya" tushunchalarining mazmunini turli jihatlar orqali ochib berganlar. Ular ushbu kategoriyalarga izoh berishda bir nechta muhim omillarni ajratib ko'rsatganlar:

mavjud bilimlarning real faoliyatda qo'llana olish darajasi;
maqсад sari intilishda namoyon bo'ladigan shaxsning irodaviy-emotsional holati va motivatsion yo'nalganligi.

N.V.Kuzminaning ta'rificha, "shaxs rivojlanishining manbaini boshqa subyektning o'ziga xos xususiyatlari orqali shakllantirish san'atini o'zlashtirishga qaratilgan faoliyat turi o'qituvchilikdir". Uning fikricha, pedagogik faoliyatdagi professionallik o'qituvchining ta'lim tizimi tomonidan ajratilgan vaqt davomida o'z fani orqali mavjud muammolarni samarali hal qila oladigan o'quvchilar tarkibini shakllantirish san'atini egallashiga asoslanadi.

L.Xjell va D.Ziglerning fikriga ko'ra, kompetensiya o'ziga xos shaxsiy psixologik-ijtimoiy sifat bo'lib, kuch va ishonch ma'nolarini anglatadi. U shaxsiy muvaffaqiyat va foydalilik hissidan kelib chiqadi hamda insonga atrof-muhit bilan samarali muloqot qilish qobiliyatini anglash imkonini beradi.

Zamonaviy metodik va ilmiy adabiyotlarda kompetensiyalarning integrativ tabiati keng o'rganilmoqda. Ular orasida ijtimoiy kompetensiya, madaniyatlararo kompetensiya, kommunikativ kompetensiya, axborot-kommunikatsion kompetensiya, shaxsiy o'sish va kasbiy rivojlanish kompetensiyasi alohida ahamiyat kasb etadi.

Har qanday kasb egasi o'z sohasidagi amaliy faoliyatini samarali tashkil eta olishi uchun tegishli kompetensiyalar majmuasiga ega bo'lishi lozim. Shu nuqtayi nazardan qaralganda, kasbiy kompetensiya o'qituvchi egallagan nazariy bilimlarning amaliy faoliyatdagi namoyon bo'lish shaklidir.

Mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar tomonidan o'qituvchining kasbiy kompetensiyasi hamda kasbiy kompetentligi haqida ilgari surilgan nazariy qarashlar dissertatsiyaning birinchi bobida batafsil bayon etilgan.

Bo'lajak pedagogik kadrlarning kasbiy-pedagogik kompetensiyasi turli

subkompetensiyalarni o'z ichiga oladi. Biroq ushbu tarkibiy qismlarning ahamiyati va ularning o'zaro nisbatini belgilash masalasida tadqiqotchilar o'rtasida yagona yondashuv mavjud emas. Gnostik kompetentlik bo'lajak pedagogik kadrning kasbiy funksiyalarni samarali bajarish asosida tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlanish salohiyatini ifodalaydi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, belgilangan komponentlar sonidan qat'i nazar, pedagogik faoliyatning barcha funksiyalari o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, o'qituvchining kasbiy faoliyati asosini tashkil etadi.

Tadqiqot doirasida gnostik kompetentlikning asosiy integrativ xususiyatlari aniqlashtirildi. Ular, bir tomondan, ustuvor yangi texnologiyalar va innovatsion axborot jamiyatining shakllanishi bilan bog'liq kompetensiyalarni, ikkinchi tomondan esa insonning nafaqat tanlagan kasbi, balki butun hayoti davomida o'zini va jamiyatni anglashiga doir kompetensiyalarni qamrab oladi. Bu esa o'qitish jarayonidagi kognitiv-funksional ko'rsatkichlarning tutash nuqtalari "hozir va shu yerda" diqqat fokusi asosida geshtaltlikka ("geshtalt" — "shakl", "obraz", "yaxlitlik") bog'liq ekanligini hamda ularni longityud kuzatuv orqali o'rganish zarurligini anglatadi.

Tadqiqot obyekti "Xorijiy til va adabiyoti" ta'lim yo'nalishi talabalari bo'lganligi bois ayrim o'rinlarda asosiy e'tibor bo'lajak chet tili o'qituvchisi shaxsiga qaratildi. Chet tili o'qituvchisi shaxsini rivojlantirish uchun zarur shartlar lingvistik, nutqiy, diskursiv, ijtimoiy-madaniy va kompensator kompetensiyalar, mamlakatshunoslik hamda sotsiolingvistik bilim va ko'nikmalar, tahlil qilish qobiliyati, asosli xulosa chiqarish malakasi bilan belgilanadi. Mazkur jihatlar gnostik kompetentlikni ko'p omilli integral yaxlitlik sifatida maqsadli shakllantirish zarurligini ko'rsatadi.

Bizning talqinimizga ko'ra, bo'lajak pedagogik kadrlarning gnostik kompetentligi pedagogik jarayonni, o'quv mazmunini, ta'lim subyektlari faoliyatini hamda kasbiy vaziyatlarni chuqur anglash, tahlil etish, izohlash, baholash va ular asosida maqbul pedagogik qarorlar qabul qilishga xizmat qiluvchi kognitiv, kasbiy-refleksiv, gnostik-faoliyatli, subyektiv-perseptiv-kommunikativ hamda prognostik komponentlarning o'zaro uyg'unlashgan majmuasidir.

Gnostik kompetentlik bo'lajak pedagogik kadrning kasbiy faoliyat jarayonida o'quvchi shaxsi, o'quv materiali, pedagogik vaziyat, metodik jarayon va ta'lim natijalarini ilmiy-pedagogik asosda anglash, tahlil qilish, loyihalash va baholashga qaratilgan kasbiy bilim, ko'nikma, malaka hamda refleksiv tajriba majmui sifatida talqin etiladi.

Dissertatsiyaning "**Bo'lajak pedagogik kadrlarning gnostik kompetentligini shakllantirish texnologiyasi**" deb nomlangan ikkinchi bobida chet tili o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida gnostik kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirishga ta'sir ko'rsatuvchi pedagogik omillar, jumladan, pedagogik sharoitlar, tamoyillar va motivatsiya darajalari, shuningdek, chet tili o'qituvchisining kasbiy-gnostik tayyorgarligi mazmuni keng tahlil qilingan. Bundan tashqari, bo'lajak pedagogik kadrlarning gnostik kompetentligini shakllantirish modelining determinatsion bloki va uni samarali amalga oshirishga qaratilgan zamonaviy pedagogik texnologiyalar masalalari chuqur o'rganilgan.

Tashkiliy-pedagogik va ijtimoiy-psixologik omillar tahlili asosida bo‘lajak pedagogik kadrlarning, xususan, xorijiy til yo‘nalishi talabalari misolida gnostik kompetentligini shakllantirishga xizmat qiluvchi kompleks pedagogik sharoitlar ishlab chiqildi.

1-jadval

Gnostik kompetentlikni shakllantirishning kompleks pedagogik sharoitlari

Omillar	Pedagogik sharoitlar	Amalga oshirish yo‘llari	Kutiladigan natija
Tashkiliy-pedagogik	Ta’lim jarayonini bosqichma-bosqich va tizimli tashkil etish.	O‘quv mashg‘ulotlari, mustaqil ta’lim va amaliy topshiriqlarni izchil bog‘lash.	Kasbiy-gnostik faoliyatga barqaror tayyorgarlik shakllanadi.
Ijtimoiy-psixologik	Hamkorlik, ishonch va pedagogik qo‘llab-quvvatlash muhitini yaratish.	Guruh ishlari, rolli o‘yinlar, bahs-munozara va refleksiv suhbatlardan foydalanish.	Kasbiy muloqot, empatiya va hamkorlikdagi talqin rivojlanadi.
Didaktik-metodik	O‘quv materiallarini kasbiy maqsadga mos tanlash va loyihalash.	Matn tahlili, keys-stadi, klaster, konseptual xarita va muammoli topshiriqlarni qo‘llash.	Tahliliy-tafakkur va interpretatsion ko‘nikmalar kuchayadi.
Refleksiv-diagnostik	Talabaning o‘z faoliyatini baholashi va rivojlanish yo‘nalishini belgilashi.	Diagnostik karta, refleksiya jurnali, portfolio va o‘zaro baholashdan foydalanish.	Kasbiy-refleksiv pozitsiya va prognostik fikrlash shakllanadi.

Mazkur sharoitlar psixologik, pedagogik va lingvistik bilimlarning integratsiyalashuvi, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida o‘quv hamda ilmiy-tadqiqot faoliyatini ijodiy vaziyatlar bilan uyg‘unlashtirish, shuningdek, ilmiy izlanishlar va til o‘rganish jarayonida o‘qituvchi hamda talaba o‘rtasidagi ijodiy hamkorlikni tashkil etishni nazarda tutadi. Bizning fikrimizcha, bo‘lajak pedagogik kadrlarni tayyorlashda eng muhim pedagogik sharoitlardan biri tashqi motivatsiyani rivojlantirishga xizmat qiluvchi omillarni hisobga olishdir. Bunday omillarga rag‘batlantiruvchi vaziyatni shakllantirish, muvaffaqiyatli bajarilgan vazifa uchun rag‘batlantirish, talabalarda o‘z kuchiga bo‘lgan ishonchni rivojlantirish, muvaffaqiyatsizlik sabablarini anglash, topshiriqlarni bajarish bo‘yicha aniq talablar va muddatlarni belgilash orqali shaxsiy mas‘uliyatni shakllantirish, bilimlarni majburiy nazorat qilish, shuningdek, mashg‘ulotlarda shaxslararo va kichik guruhlararo raqobat muhitini yaratish kiradi.

Tadqiqot ishida gnostik kompetentlikni shakllantirishning didaktik imkoniyatlarini aniqlashtirishda o‘quv jarayonidagi kognitiv-funksional ko‘rsatkichlarni rivojlantiruvchi “tutash nuqtalar” alohida metodik mezon sifatida

qaraldi. Ushbu tutash nuqtalar talabaning o'quv materialini idrok etishi, asosiy mazmuniy birliklarni ajratishi, ularni avvalgi bilimlar bilan bog'lashi, kasbiy vaziyatda qo'llashi va reflektiv baholashi jarayonlarining kesishgan holatlarida namoyon bo'ladi.

Didaktik imkoniyatlarning mazmuni "hozir va shu yerda" diqqat fokusi asosida izohlandi. Bunda talabaning ayni o'quv vaziyatidagi idroki, vazifaga munosabati, nutqiy-harakat reaksiyasi, mantiqiy talqini va kasbiy qaror qabul qilishga tayyorligi bir butun geshtalt sifatida tahlil qilindi. Shu sababli gnostik kompetentlikni shakllantirishda faqat bilimni egallash emas, balki o'quv vaziyatini yaxlit anglash, muhim belgilarni farqlash, mazmuniy aloqalarni aniqlash va ularni kasbiy-reflektiv xulosaga aylantirish asosiy didaktik imkoniyat sifatida belgilandi.


Longityud kuzatuv jarayonida talabalarning kognitiv-funksional ko'rsatkichlari motivatsion-kognitiv, kognitiv-operatsion, amaliy-faoliyatli va reflektiv-prognostik bosqichlarda tahlil qilindi. Natijada gnostik kompetentlikni shakllantirish imkoniyatlari talabaning barqaror bilish qiziqishi, o'quv materialini mantiqiy-semantik qayta ishlashi, kasbiy-nutqiy vaziyatda mustaqil qaror qabul qilishi va o'z faoliyatini baholash ko'nikmalari bilan bevosita bog'liq ekani aniqlashtirildi.

Olib borilgan tadqiqot doirasida maqsadli, mazmuniy, determinatsion, operatsion-faoliyatli, diagnostik va natijaviy bloklardan tashkil topgan bo'lajak pedagogik kadrlarning gnostik kompetentligini shakllantirish modeli bo'lajak chet tili o'qituvchilari misolida takomillashtirildi (1-rasm).

Modelning asosiy farqli jihati shundaki, unda kognitiv hamda kasbiy-reflektiv ko'rsatkichlarning izchil rivojlanishini ta'minlovchi determinatsion blok alohida tarkibiy qism sifatida ajratildi. Mazkur blok o'quv materiallarini loyihalashning mantiqiy-semantik strukturasi, nominativ va signativ elementlarni aniqlash hamda ularni pedagogik algoritm asosida ta'lim jarayoniga kiritish mexanizmlarini o'z ichiga oladi.

Ilmiy ishda o'quv matnlarini tanlashning monologik, diskursiv va struktur modellari bo'lajak pedagogik kadrlarning tahliliy-tafakkuriy hamda interpretatsion ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi alohida metodik bosqich sifatida qaraldi (2-jadval). Monologik model talabaning mavzu yuzasidan izchil, mantiqli va dalillangan fikr bayon qilishiga xizmat qiladi; diskursiv model pedagogik muloqot, savol-javob, bahs-munozara va vaziyatli kommunikatsiyada ma'no almashish mexanizmlarini faollashtiradi; struktur model esa matnning ichki tuzilishi, sabab-oqibat aloqalari, tayanch tushunchalari va metodik vazifalarini ajratishga yo'naltiriladi.

Dissertatsiya ilmiy yangiligining mazmuni aynan ushbu uch modelning o'zaro integratsiyasida namoyon bo'ladi. Monologik model talabaning individual tahlil va xulosalash faoliyatini, diskursiv model hamkorlikdagi talqin va kasbiy muloqotni, struktur model esa o'quv matnining ichki semantik aloqalarini aniqlashni ta'minlaydi. Ushbu yondashuv asosida o'quv matnlari faqat til materiali sifatida emas, balki talabaning pedagogik vaziyatni idrok etishi, axborotni qayta ishlashi, dalillashi va metodik qaror qabul qilishini faollashtiruvchi gnostik vosita sifatida tanlanadi.



**1-rasm. Bo'lajak pedagogik kadrlarning gnostik kompetentligini shakllantirish modeli
(bo'lajak chet tili o'qituvchilari misolida)**

O'quv matnlarini tanlash modeli

Parametrlar	Monologik model	Diskursiv model	Struktur model
1. Maqsad	Talabaning mavzu yuzasidan izchil, mantiqiy va dalillangan fikr bayon qilish ko'nikmasini rivojlantirish.	Pedagogik muloqot, savol-javob va bahs-munozara jarayonida ma'no almashish hamda hamkorlikdagi talqin ko'nikmalarini rivojlantirish.	O'quv matnining ichki tuzilishi, semantik bog'lanishlari va metodik vazifalarini aniqlash orqali tizimli tahlil ko'nikmalarini rivojlantirish.
2. Asosiy xususiyatlar	<ul style="list-style-type: none"> • Mustaqil fikr yuritish • Izchil bayon qilish • Dalillash • Xulosa chiqarish 	<ul style="list-style-type: none"> • Savol-javob • Bahs-munozara • Muloqot • Hamkorlikdagi talqin 	<ul style="list-style-type: none"> • Ichki tuzilma • Tayanch tushunchalar • Sabab-oqibat aloqalari • Semantik bog'lanishlar
3. Jarayon bosqichlari	<ol style="list-style-type: none"> 1. O'quv matnini qabul qilish 2. Asosiy g'oyani aniqlash 3. Dalillarni saralash 4. Mantiqiy bayon qilish 5. Xulosa chiqarish 	<ol style="list-style-type: none"> 1. O'quv matni bilan tanishish 2. Savol-javob tashkil etish 3. Muhokama va bahs 4. Ma'no almashish 5. Kasbiy muloqotda talqin qilish 	<ol style="list-style-type: none"> 1. O'quv matnini qismlarga ajratish 2. Tayanch tushunchalarni aniqlash 3. Sabab-oqibat aloqalarini ochish 4. Semantik tuzilmani izchil tahlil qilish 5. Metodik xulosa chiqarish
4. Rivojlantiriladigan ko'nikmalar	<ul style="list-style-type: none"> • Tahliliy-tafakkur • Mantiqiy nutq • Mustaqil talqin • Dalillangan fikr 	<ul style="list-style-type: none"> • Interpretatsion ko'nikmalar • Kommunikativ faollik • Kasbiy muloqot • Hamkorlikdagi fikrlash 	<ul style="list-style-type: none"> • Strukturaviy tahlil • Semantik idrok • Mantiqiy bog'lash • Metodik talqin
5. Kutiladigan natija	Talaba o'quv matni asosida mustaqil, izchil va asoslangan fikr bildira oladi.	Talaba o'quv matnini muloqot jarayonida sharhlaydi, talqin qiladi va kasbiy vaziyatda qo'llay oladi.	Talaba o'quv matnining ichki tuzilishini anglaydi, mazmuniy bog'lanishlarni aniqlaydi va uni tizimli talqin qila oladi.

Mazkur jarayon texnologik matritsa orqali loyihalashtiriladi. Texnologik matritsada o'quv matni turi, undagi tayanch nominativ elementlar, ularni ifodalovchi signativ vositalar, talaba tomonidan bajariladigan tahliliy-amaliy harakatlar, baholash mezonlari va kutilayotgan gnostik natija o'zaro bog'liq holda belgilanadi (3-jadval). Bu esa tahliliy-tafakkuriy va interpretatsion ko'nikmalarning tasodifiy emas, balki maqsadli, bosqichli hamda diagnostik nazorat qilinadigan jarayonda shakllanishiga imkon beradi.

Modelni ishlab chiqishda tizimli, kompetensiyaviy, faoliyatli, reflektiv, lingvodidaktik va shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlar metodologik asos sifatida olindi. Tizimli yondashuv gnostik kompetentlikni alohida bilimlar yig'indisi emas,

balki o‘zaro bog‘langan tarkibiy qismlar majmui sifatida ko‘rib chiqishga imkon berdi. Kompetensiyaviy yondashuv natijaviylikni bilim, ko‘nikma, malaka va shaxsiy sifatlar integratsiyasi orqali baholashni ta‘minladi. Faoliyatli yondashuv talabalarning o‘quv-nutqiy, tahliliy, interpretatsion va loyihaviy faoliyatini tashkil etishga xizmat qildi. Refleksiv yondashuv esa bo‘lajak pedagogik kadrlarning o‘z faoliyatini anglash, baholash va takomillashtirish mexanizmlarini model tarkibiga kiritish imkonini berdi.

3-jadval

Texnologik matritsa

Yo‘nalish	Mazmuni	Pedagogik vositalar	Kutiladigan natija
Tahliliy-tafakkur	tahlil, sintez, mantiqiy xulosa chiqarish	muammoli topshiriq, matn tahlili, klaster	analitik fikrlash rivojlanadi
Interpretatsion ko‘nikmalar	matnni talqin qilish, mazmunni izohlash	savol-javob, izohli o‘qish, konseptual xarita	mazmunni sharhlash ko‘nikmasi kuchayadi
Kasbiy-refleksiv rivojlanish	o‘z faoliyatini baholash va refleksiya	refleksiya kundaligi, o‘zaro baholash, portfolio	kasbiy o‘rish va o‘zini tahlil qilish rivojlanadi
Prognostik faoliyat	rejalashtirish, natijani bashorat qilish	loyiha metodi, pedagogik vaziyat, keys-stadi	oldindan ko‘ra bilish va qaror qabul qilish malakasi rivojlanadi

Maqsadli blok bo‘lajak pedagogik kadrlarning gnostik kompetentligini shakllantirishga qaratilgan strategik maqsad, vazifalar va kutilayotgan natijalarni belgilaydi. Ushbu blokning asosiy vazifasi talabalarda chet tilini o‘qitish jarayonida axborotni izlash, tanlash, qayta ishlash, mantiqiy-semantik tahlil qilish, pedagogik vaziyatlarga moslashtirish va kasbiy xulosalar chiqarish ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat. Mazkur maqsad talabaning nafaqat lingvistik tayyorgarligini, balki pedagogik tafakkuri, kasbiy refleksiyasi va prognostik qaror qabul qilish qobiliyatini ham rivojlantirishni nazarda tutadi.

Mazmunli blok gnostik kompetentlikni shakllantirishga xizmat qiluvchi lingvo-gnostik, psixologik-gnostik va didaktik-metodik komponentlardan tashkil topadi. Lingvo-gnostik komponent chet tili materialining semantik, kommunikativ, stilistik va madaniy xususiyatlarini anglashga yo‘naltiriladi. Psixologik-gnostik komponent talabalarning bilish faolligi, idroki, xotirasi, diqqati, metakognitiv nazorati va refleksiv baholash imkoniyatlarini rivojlantiradi. Didaktik-metodik komponent esa o‘quv materiallarini tanlash, dars jarayonini loyihalash, o‘quv topshiriqlarini kasbiy kontekstga moslashtirish va natijalarni baholash faoliyatini qamrab oladi.

Mazmunli blokni takomillashtirishda o‘quv materiallarini mantiqiy-semantik struktura asosida loyihalash alohida ahamiyatga ega. Bunda matn, mashq, dialog, monolog, keys, loyiha va refleksiv topshiriqlar tarkibidagi asosiy tushunchalar,

predmetlar, hodisalar va kasbiy vaziyatlar nominativ elementlar sifatida ajratiladi. Ularning ma'no, munosabat, sabab-oqibat, baholash va talqin qilish jihatlarini ifodalovchi belgilar esa signativ elementlar sifatida belgilanadi. Shu asosda o'quv materialining ichki semantik bog'lanishi va tashqi kommunikativ ifodalanishi o'rtasida metodik muvofiqlik hosil qilinadi.

Determinatsion blok tadqiqotda taklif etilgan modelning markaziy tarkibiy qismi bo'lib, gnostik kompetentlikning shakllanishiga ta'sir qiluvchi ichki va tashqi pedagogik omillarni tartibga soladi. Ushbu blok kognitiv ko'rsatkichlar — bilish, tahlil, sintez, umumlashtirish va interpretatsiya — hamda kasbiy-refleksiv ko'rsatkichlar — o'zini baholash, pedagogik qarorni asoslash, faoliyat natijasini tahlil qilish va o'z-o'zini rivojlantirish yo'nalishini belgilash — o'rtasidagi izchil aloqadorlikni ta'minlaydi.

Determinatsion blokning metodik vazifasi o'quv materialini talabanning kasbiy-gnostik faoliyatiga mos tarzda qayta qurishdan iborat. Bunda o'quv materiali tasodifiy yoki faqat mavzuviy ketma-ketlikda emas, balki mantiqiy-semantik aloqalar, kasbiy vaziyatlar, refleksiv savollar va prognostik topshiriqlar tizimi asosida loyihalalanadi. Natijada talaba matn mazmunini shunchaki qabul qilmaydi, balki undagi asosiy ma'no birliklarini ajratadi, ularni pedagogik vaziyat bilan bog'laydi, o'quvchilar ehtiyojiga moslashtiradi va metodik qaror qabul qiladi.

Nominativ elementlar o'quv materialida nomlanayotgan obyekt, hodisa, tushuncha, kasbiy vaziyat, pedagogik muammo yoki kommunikativ vazifani ifodalaydi. Signativ elementlar esa ushbu obyekt va hodisalarning ma'nosi, funksiyasi, baholanishi hamda ular o'rtasidagi sababiy, shartli, qiyosiy va natijaviy munosabatlarni aks ettiradi. Ularni birgalikda qo'llash talabalarda matnni yuzaki o'qishdan chuqur semantik tahlil qilishga, tayyor axborotni qabul qilishdan esa pedagogik axborotni qayta loyihalashga o'tishni ta'minlaydi.

Bizning fikrimizcha, determinatsion blok bo'lajak pedagogik kadrlarning gnostik kompetentligini shakllantirish modelida kognitiv va kasbiy-refleksiv ko'rsatkichlarning izchil rivojlanishini belgilovchi, o'quv materialari mazmunini mantiqiy-semantik jihatdan tartibga soluvchi hamda nominativ va signativ elementlar o'rtasidagi muvofiqlikni ta'minlovchi boshqaruvchi-pedagogik komponentdir.

Modelning aynan determinatsion blokida tadqiqotning ilmiy yangiliklaridan biri o'z ifodasini topadi. Ushbu blok kognitiv ko'rsatkichlar — bilish, tahlil qilish, sintezlash, interpretatsiya qilish — hamda kasbiy-refleksiv ko'rsatkichlar — o'z faoliyatini baholash, xatolarni anglash, pedagogik vaziyatni qayta loyihalash — o'rtasidagi izchil bog'liqlikni ta'minlaydi. Shu sababli o'quv materiallarini loyihalash jarayonida mazmuniy birliklar nominativ elementlar sifatida ajratiladi, ularning ma'nosi, belgisi, funksiyasi va vizual-didaktik ifodasi esa signativ elementlar orqali aniqlashtiriladi. Natijada o'quv materiali oddiy axborotlar majmui sifatida emas, balki talabanning gnostik faoliyatini bosqichma-bosqich faollashtiruvchi mantiqiy-semantik tizim sifatida tashkil etiladi.

Nominativ elementlar o'quv materialining mazmuniy yadrosini tashkil etuvchi terminlar, tushunchalar, mavzular, kasbiy matnlar, leksik-grammatik birliklar va

didaktik axborot birliklari bo‘lib, ular talabalarda bilimni anglash, nomlash, farqlash va mazmunan qayta ishlash jarayonini ta‘minlaydi.

Signativ elementlar nominativ elementlarning ifodalanish, tasvirlanish va o‘zlashtirilish shakllarini tashkil etuvchi belgilar, sxemalar, diagrammalar, jadvallar, modellar, grafik ko‘rinishlar, topshiriq shakllari va vizual-didaktik vositalar majmuidir.

O‘quv materiallarini mantiqiy-semantik struktura asosida loyihalashning pedagogik algoritmi quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi: o‘quv materialining mavzusi, kasbiy yo‘nalishi va kommunikativ vazifasini aniqlash; matn yoki topshiriq tarkibidagi asosiy nominativ elementlarni ajratish; nominativ elementlarga mos signativ belgilarni — ma‘no, munosabat, baho, sabab-oqibat va funksional aloqalarni belgilash; nominativ va signativ elementlar o‘rtasidagi ichki semantik bog‘lanishni grafik, jadval yoki topshiriq shaklida ifodalash; ajratilgan elementlar asosida tahliliy, interpretatsion, refleksiv va prognostik savollar tizimini ishlab chiqish; materialni kasbiy-pedagogik vaziyatga moslashtirish va uni chet tili darsining real kommunikativ sharoitida qo‘llash; talabaning bajarilgan topshiriq bo‘yicha o‘z faoliyatini baholashi, xatolarni aniqlashi va keyingi metodik qarorlarni belgilashi.

